XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 25-mart VII-20-19-8-110-K/26 Boysun tumani

Boysun tumanidagi “Yoshlar bog‘i” nomli istirohat bog‘i nomini “Shukur Xolmirzayev” nomiga o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 17-noyabrdagi 11-01/121-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 30-dekabrdagi 07-18/13111-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2026-yil 13-yanvardagi 02-19-525-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 13-martdagi DKQ 03-03/20-26-sonli yig‘ilishida muhokama etilib, O‘zbekiston Ekologik partiyasi tuman Kengashi hamda deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 17-noyabrdagi 11-01/121-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 30-dekabrdagi 07-18/13111-sonli hamda Respublika

Kadastr agentligining 2026-yil 13-yanvardagi 02-19-525-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomi o‘zgarayotgan istirohat bog‘i ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kadastrlar palatasi tuman filiali (M.X.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomi o‘zgarayotgan istirohat, shuningdek, yangidan nomlangan istirohat bog‘ini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (F.F.Fayzulloyev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (Z.A.Raxmonov) hududda yangi nomlangan istirohat bog‘ining yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-davlat tili bo‘yicha maslahatchisi (Y.Sh.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining 2022-yil 30-iyundagi VI-50-64-8-110-K/22-son “Tumandagi istirohat bog‘ining nomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bahovaddinov) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Allanov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **XAITOV BEKMUROT KARIMOVICH**

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2026-yil 25-martdagi
VII-20-19-8-110-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda nomi o‘zgarayotgan istirohat bog‘i RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Istirohat bog‘i	Mustaqillik MFY	Yoshlar bog‘i	Shukur Xolmirzayev	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.